

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**QUDRATILLAYEV JAXONGIR ZOKIRJON O‘G‘LI**

**INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING  
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy**  
**(PhD)**

<b>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</b> Internetdan foydalanish huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari .....	3
<b>Kudratillayev Jakhongir Zokirjon ugli</b> Constitutional and legal foundations of the right to use the Internet.....	27
<b>Кудратиллаев Жахонгир Зокиржон угли</b> Конституционно-правовые основы права пользования интернетом.	48
<b>E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных научных работ List of published scientific works .....	52

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**QUDRATILLAYEV JAXONGIR ZOKIRJON O‘G‘LI**

**INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING  
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1032 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bekov Ixtiyor Rustamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Xakimov G‘ulomjon Turg‘unpulatovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar  
vazirligi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10<sup>00</sup> soat 17-dekabrda majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1449-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-dekabrda tarqatildi.

(2025-yil 3-dekabrda 31-raqamli reyestr bayonnomasi).

**R.R.Xakimov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**F.B.Maxmudov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

**A.G‘.Asadov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisining  
o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori,  
professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda axborotni izlash, olish, to'plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatishga hamda inson huquq, erkinliklarini amalga oshirish jarayoniga Internet jahon axborot tarmog'i o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Internet sivilizatsiya va jamiyat turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Mazkur tarmoq global axborot magistrallari majmui bo'lib, sayyoramizning istalgan nuqtasiga ma'lumotlarni zudlik bilan yetkazib berish imkonini beradi. Internet XX asrning 70-yillarida paydo bo'lib, nisbatan qisqa vaqt ichida hayotimizning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib keldi va uni tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda dunyoda 5.35 milliard Internet foydalanuvchisi bor. Ya'ni dunyo aholisining 66 foizi Internetdan foydalanadi<sup>1</sup>. Ijtimoiy tarmoqlardan esa (2024-yilda 1-mart holatiga ko'ra) 5.04 milliard foydalanuvchilar foydalanib kelmoqdalar, bu butun dunyo aholisining deyarli 60 foizini tashkil qiladi<sup>2</sup>. Ushbu tendentsiyalar o'z navbatida BMT tomonidan "Internetdan foydalanish huquqini insonning asosiy huquqlariga tenglashtirish"ga qaratilgan rezolyutsiya qabul qilishiga turtki berdi.

Freedom House xalqaro inson huquqlari tashkiloti "Internet tarmog'idagi erkinlik" (Freedom on the Net) yillik hisobotini<sup>3</sup> e'lon qildi. Tadqiqot 2023-yil iyundan 2024-yil mayigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Hisobotda 72 ta davlat tahlil qilingan va 3 ta toifaga ajratilgan: Internet tarmog'i erkin, qisman erkin va erkin emas. Hisobotga ko'ra O'zbekiston 100 balldan 27 ball to'pladi va Internet tarmog'i erkin bo'lmagan davlatlar qatoridan joy oldi. Umuman olganda, hisobot mualliflari ta'kidlaganidek, so'nggi 14 yil davomida butun dunyo bo'ylab Internet erkinligi darajasi izchil pasayishda davom etmoqda. Internetdagi erkinlik darajasiga ta'sir etuvchi asosiy sabablar qatorida saylovlarga aralashish va Internetda o'z fikr-mulohazalarini erkin bildirish uchun repressiyalarning kuchayishi qayd etilgan. Shuningdek, 2023-yilda kamida 43 mamlakatda odamlar o'z fikrini bildirgani va Internetda faol bo'lgani uchun hujumga uchragan yoki o'ldirilgan<sup>4</sup>.

Jahonda axborot texnologiyalarining inson huquq va erkinliklariga ta'siri, raqamli konstitutsionalizm, Internetdan foydalanish huquqining asosiy huquq sifatida e'tirof etilishi masalalari, raqamli muhitda inson huquqlarining yangi talqini, Internetni huquqiy tartibga solishning mexanizmlari, Internetda axborot izlash, olish va tarqatish huquqining kafolatlari, Internet boshqaruvida xalqaro standartlarni joriy etish masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish muhim tadqiqot yo'nalishlari sifatida o'rganilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda so'z, matbuot va fikr erkinligini ta'minlash sohalarida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Internet foydalanuvchilari soni 2016-yilda 12.1 million bo'lgan bo'lsa, 2024-yil boshiga kelib ikki barobarga, ya'ni 33 milliondan oshdi. Aholi yashash maskanlarini Internet tarmog'i bilan ta'minlash 2016-yildagi 28 foizdan 2024-yilda 98 foizga yetgan<sup>5</sup>. 2023-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi 3-qismida

<sup>1</sup><https://www.forbes.com/home-improvement/Internet/Internet-statistics/>

<sup>2</sup><https://www.statista.com/statistics/272014/global-social-networks-ranked-by-number-of-users/>

<sup>3</sup><https://freedomhouse.org/report/freedom-net/2024/struggle-trust-online>

<sup>4</sup><https://kun.uz/33966394>

<sup>5</sup> <https://dataportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>

davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga olmoqda. Bu islohotlar natijasida O'zbekistonda Internetdan foydalanish huquqi axborot olish huquqining bir ko'rinishi sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Internetdan foydalanish huquqi yurisdiksiyamiz uchun nisbatan yangi bo'lganligi uchun Internet bilan bog'liq normativ huquqiy hujjatlar nisbatan tarqoq bo'lib, Internetning u yoki bu jihatini tartibga solishga qaratilgan. Bu esa ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etadi.

Mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlar, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi (707-sonli) "Butunjahon Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarini muayyan darajada takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo'nalishi" doirasida tayyorlangan bo'lib, dissertatsiya 12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda yuridik fanlar doirasida Internetdan foydalanish huquqining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari maxsus monografik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Biroq tadqiqot mavzusining u yoki bu jihatlari I.Rustambekov, B.Xodjayev, J.Ilxombekov, J.Abdullayev, N.Nugmanov, A.Amanov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>6</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda Internetdan foydalanish huquqining konstitutsiyaviy huquqiy asoslariga taalluqli ilmiy izlanishlar A. Sherbovich, A. Pazyuk, M. Sereda, E. Talapina N.Baranova, A.Ishina, A.Krotov, T.Izzatov, T.Timerbayev, A.Proxorov, Y.Lotman, S.Petrovskiy, S.Simonovich, G.Yevseyev, O.Dudko, T.Baljirova, A.Sheremet, S.Malaxov, L.Kupriyanov, N.Kulicheva, B.Kristalniy, Y.Nesterov, A.Chernov, V.Shalak, A.Kochetov, L.Lapo, M.Pogorelova, A.Tedeyev, I.Rassolov, A.Lukyanov, S.Mixaylov, Y.Altovskiy, A.Malkevich, Y.Zasurskiy, A.Skvorsov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan<sup>7</sup>.

Boshqa xorijiy mamlakatlarda esa A.Mellakauls, L.Lessig, D.Rutzen, Y.Zenn Y.Kurbaliyya, E.Gelbstayn, S.Baldi, V.Radunovich, K.Myoller, A.Amuru, Y.Akdeniz va boshqa olimlar tomonidan Internetdan foydalanish huquqi bilan bog'liq masalalar talqin qilingan<sup>8</sup>.

Biroq yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili Internetdan foydalanish huquqining nazariy va amaliy muammolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, shuningdek, ushbu sohaga oid xalqaro hujjatlar hamda boshqa

<sup>6</sup>Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

<sup>7</sup>Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

<sup>8</sup>Mazkur ilmiy ishlarning to'liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

normativ-huquqiy hujjatlar asosida kompleks tadqiqot ishi sifatida alohida o'rganilmaganidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Rivojlangan davlatlar qonunchilik amaliyoti va xorijiy davlatlarning ijobiy yutuqlarini nazariy tadqiq etish asosida olingan natijalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasida Internetdan foydalanish huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ya'ni Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar tizimida insonning subyektiv huquqi sifatida Internetdan foydalanish huquqi konsepsiyasini ishlab chiqish, shuningdek, Internetdan foydalanish huquqining mustaqil va umume'tirof etilgan inson huquqi sifatida shakllanishi bilan bog'liq tendensiyalarni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Internet va Internetdan foydalanish tushunchalarining yuridik nuqtayi nazardan rivojlanish tarixini o'rganish;

Internet va Internetdan foydalanish huquqining yuridik tabiatini tahlil qilish;

Internet va Internetdan foydalanish huquqining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularni inson huquqlari obyekti sifatida tavsiflash;

Internetdan foydalanish huquqining tarkibiy qismlarini (texnik va notexnik omillarni) aniqlash va tahlil qilish;

milliy (davlatlar) darajasida va xalqaro miqyosda Internetdan foydalanish huquqining alohida mustaqil huquq sifatida tan olish (mustahkamlash) tajribasini o'rganish va tahlil qilish;

Internetdan foydalanish huquqining huquqiy tartibga solishninishini tadqiq qilish;

Internetdan foydalanish huquqining boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar bilan o'zaro nisbatini va mazkur huquq va erkinliklarga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash;

Internetdan foydalanish huquqining ta'minlanishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash;

Internetdan foydalanish huquqining ta'minlanishi bilan bog'liq davlatlarning ijobiy va salbiy majburiyatlarini belgilash;

Internetdan foydalanish huquqi va Internet bilan bog'liq cheklovlarning konstitutsiyaviyligini hamda cheklovlarning mutanosibligini tahlil etish va baholash;

Internetdan foydalanish huquqining ta'minlanishi bilan bog'liq muammolar yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston axborot jamiyatida yangi inson huquqi sifatida Internetdan foydalanish huquqining shakllanishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Internetdan foydalanish huquqini alohida mustaqil huquq sifatida tan olinishi va ta'minlanishiga doir nazariy-huquqiy qarashlar,

sohaga oid qonunchilik hujjatlari, ularni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fandagi mavjud konseptual yondashuv, ilmiy-nazariy qarashlar, huquqiy kategoriyalar hamda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga oid masalalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda bilishning formal-mantiqiy, analitik, tarixiy-huquqiy, qiyosiy, tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, tizimli-tuzilmaviy, so'rovnoma, formal-yuridik kabi usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi hamda axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini amalga oshirishning kafolati sifatida davlatning Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini belgilash zarurligi asoslangan;

axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashning aniq chegarasi va asoslarini belgilash zarurligi asoslab berilgan;

Internetdan foydalanish huquqini asossiz va nomutanosib cheklanishini oldini olish uchun insonning huquq va erkinliklarni cheklashning aniq chegarasi va asoslarini belgilash zarurligi asoslangan;

bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni amalga oshiruvchi organlar va tashkilotlar tizimiga mazkur yo'nalishdagi qanday komissiyalar vakolatli tashkilot sifatida kiritilishi zarurligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"Internet" va "Internetdan foydalanish huquqi" kabi tushunchalariga nisbatan mualliflik ta'riflari ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kiritish zaruriyati va qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanishi asoslantirilgan;

inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirilishining asosiy sharti Internetdan foydalanish huquqi ekanligi hamda Internetdan foydalanish huquqining Konstitutsiya darajasida mustahkamlash zaruriyati asoslab berilgan;

Internetdan foydalanish huquqini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan texnik va notexnik omillarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan (asosan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun doirasida) tartibga solish masalasi asoslantirilgan;

Internet va Internetdan foydalanish huquqining cheklanishi va cheklanishning mutanosibliigi bilan bog'liq masalalar qanday tartibga solinishi va qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanishi asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari asosida umumlashtirilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy qonunchilik normalarining o'zaro tahlili asosida xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini unda keltirilgan xulosalar va takliflar, shuningdek ular asoslangan faktik materiallar belgilaydi. Ishda shakllangan xulosalar konstitutsiyaviy huquqning nazariy asoslarini inson huquqlari konsepsiyasini rivojlantirish yo‘nalishida boyitadi va to‘ldiradi. Shuningdek, ular ijtimoiy munosabatlar va axborot texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda, O‘zbekistonda inson huquqlarining rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari aniqlashtiradi. Shu bilan birga, Internetda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan konstitutsiyaviy-huquqiy masalalar bo‘yicha o‘quv kurslarida, maxsus kurslar uchun uslubiy materiallar ishlab chiqishda, o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda va ilmiy faoliyatda ham foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati axborot jamiyati sharoitida inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi konstitutsiyaviy tamoyilini ro‘yobga chiqarishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ishda keltirilgan xulosalar va takliflar amaliyotda keng qo‘llanilish imkoniyatiga ega bo‘lib, ulardan qonunchilik jarayonida, sud va boshqa davlat organlarining huquqni qo‘llash faoliyatida, ilmiy-tadqiqot ishlarida va ta‘lim jarayonida, xususan, o‘quv seminarlari va treninglarda, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Internetdan foydalanish huquqini ta‘minlashni takomillashtirish sohasidagi tadqiqot bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

davlatning Internetda axborot izlash, olish va tarqatish huquqini ta‘minlash bilan bog‘liq majburiyatlariga oid taklif 2023-yil 1-maydagi (O‘RQ-837-son) “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunida (33-modda 3-qism) o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosarining 2024-yil 7-oktabrdagi 02/6-09-67-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi davlatning Internetdan foydalanish huquqini ta‘minlash bilan bog‘liq majburiyatlari Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilishiga xizmat qilgan;

axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi bilan bog‘liq cheklovlarga oid takliflar 2023-yil 1-maydagi (O‘RQ-837-son) “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunida (33-modda 4-qism) o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosarining 2024-yil 7-oktabrdagi 02/6-09-67-sonli dalolatnomasi). Unga ko‘ra axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yilishi nazarda tutadi. Mazkur cheklovlarning Konstitutsiyada belgilanishi orqali izlash, olish va tarqatish mumkin bo‘lgan axborotlarning umumiy xususiyati va prinsipi shakllandi. Bu esa Internetdagi cheklanishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarning aniq chegarasini aniqlashga xizmat qilgan;

insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkinligi, ya‘ni qaysi hollarda inson huquq va erkinliklarini cheklanishi mumkinligi oid takliflar 2023-yil 1-maydagi (O‘RQ-837-son) “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunida (21-modda 3-qism) o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosarining 2024-yil 7-oktabrdagi 02/6-09-67-sonli dalolatnomasi). Bu Internetdan foydalanish huquqining cheklanish doirasi va cheklovning mutanosibliigi Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yilishiga xizmat qilgan;

bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni amalga oshiruvchi organlar va tashkilotlar tizimiga oid takliflar 2023-yil 11-apreldagi (O‘RQ-829-son) “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga asosan 2017-yil 8-sentabrdagi (O‘RQ-444-son) “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunida (7-modda 1-qism 3-xatboshi, 9-modda nomi, 9-modda 1-qism 1-xatboshi va 9-modda 2-qismi) o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosarining 2024-yil 7-oktabrdagi 02/6-09-67-sonli dalolatnomasi). Natijada bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasida bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) komissiyalari ham vakolatli tashkilotga aylandi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 5 ta (2 ta xorijiy nashrda) va to‘plamlar tarkibida 6 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Internetdan foydalanish huquqining ilmiy nazariy asoslari**” deb nomlangan. Dastlab Internetning yaratilish va rivojlanish tarixiga e’tibor qaratilgan. Internetning rivojlanish tarixi 4 bosqichga (*tajriba bosqichi, Web 1.0 bosqichi, Web 2.0 bosqichi va Web 3.0 bosqichi*) bo‘lib tahlil qilingan. Har bir bosqichning Internetdan foydalanish huquqiga ko‘rsatgan ta’siri o‘rganilgan.

Internet va Internetdan foydalanish tushunchalarini konstitutsiyaviy huquq nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Internetning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan: *transchegaraviy (globallik), kommunikativ (aloqa) va alohida “huquqiy maydoni”*.

Shuningdek, “Internet” tushunchasiga batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Internetni kengroq tushunish uchun olimlarning Internetga bo‘lgan qarashlarini va normativ-huquqiy hujjatlaridagi ta’riflarni batafsil tahlil qilingan. Xususan, bir qator olimlar V.I. Shalak, I.Rustambekov, Y.Kurbaliyya, M. A. Pogorelova va L.Lessiglarning “Internet” haqidagi qarashlari tahlildan o‘tkazilgan. Ushbu tahlillar asosida muallif *“Internet - bu umumiy foydalanishdagi global axborot-telekommunikatsiya tarmog‘i bo‘lib, ko‘plab mahalliy, mintaqaviy va shaxsiy kompyuter tarmoqlarini yagona axborot makoniga birlashishini ta’minlaydi. Uning ishlashi maxsus dasturiy protokollardan foydalangan holda axborot va texnik resurslarning tizimli integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu esa domen manzillari va gipermatn texnologiyalari yordamida turli xil resurslarga kirish, shuningdek elektron pochta, chatlar va boshqa tarmoq xizmatlari orqali ma’lumot almashish imkonini yaratadi. Internet insonlarga axborot izlash, olish va tarqatish, muloqot qilish, ma’lumotlar almashish, shuningdek turli xil xizmatlar va ilovalardan foydalanish imkonini beradi.”*, degan xulosaga kelgan.

Internetdan foydalanishni Internet global kompyuter tarmog‘iga ulanish va unda ishlash imkoniyati sifatida tushunish mumkin. Internetda ishlash Internetning axborot resurslaridan foydalanish, axborotni mustaqil va faol tarqatish, axborot resurslarini yaratish va boshqalarga ulardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish, shuningdek boshqa foydalanuvchilar bilan o‘zaro muloqot qilish hisoblanadi.

Internetdan foydalanish huquqi aksariyat huquqlarning amalga oshirish vositasi bo‘lib, o‘zining raqamli aksi bo‘lgan har qanday huquqni Internetdan foydalanish huquqi yordamida amalga oshirish mumkin. Shundan kelib chiqib, Internetdan foydalanish huquqi aksariyat huquqlarning amalga oshirish vositasi ekanligi asoslab berilgan.

Internetdan foydalanish huquqi yuzasidan olib borilgan yuqoridagi tahlillar va E.V.Talapina, A.A. Sherbovich, A.V. Pazyuk, P.Xert, M.Salikov, I.Ostapovich, V.Rudenko va L.Lessiglarning shu bilan bog‘liq qarashlarini keng tahlil qilgan holda “Internetdan foydalanish huquqi” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: *“Internetdan foydalanish huquqi - insonlarga global Internet tarmog‘iga kirish va unda ishlash (texnik va notexnik omillarga bog‘liq), Internet axborot resurslaridan foydalanish, shuningdek axborot yaratish va tarqatish imkoniyatini beruvchi shaxsiy, pozitiv, individual (xususiy) va nisbiy huquq hisoblanadi. Mazkur huquq raqamli muhitda ko‘plab boshqa huquq va erkinliklarni ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Ya’ni o‘zining raqamli aksi bo‘lgan har qanday huquqni Internetdan foydalanish huquqi yordamida amalga oshiriladi.”*

Internetning huquqiy tabiati uning alohida huquqiy maydonga aylanib borayotgani bilan bog‘liligi asoslab berildi. Endi insonlarda ikki huquqiy maydon mavjud ekanligi tahlil qilingan. Ya’ni real (haqiqiy) huquqiy maydon (offline) va Internet huquqiy maydoni (online). Mazkur yangi huquqiy maydonda insonlar o‘z huquq va erkinliklaridan foydalanmoqdalar, majburiyatlarini bajarmoqdalar, shuningdek boshqalarni huquq va erkinliklariga ta’sir o‘tkazmoqdalar. Shundan kelib chiqib, Internetning ijtimoiy munosabatlar uchun yangi huquqiy maydonga aylanib borayotganligi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, ushbu yangi huquqning yuridik tabiati tadqiq qilindi. Ya’ni konstitutsiyaviy huquq fanida mavjud tasniflar asosida Internetdan foydalanish huquqi tasniflandi (*tabiiy va pozitiv huquqlar bo‘yicha; inson va fuqaro huquqlari bo‘yicha; mutlaq va nisbiy huquqlar bo‘yicha; individual (xususiy) va jamoaviy (ommaviy) huquqlar bo‘yicha; amalga oshirish sohalari bo‘yicha (shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy); “huquqlarning avlodlari” bo‘yicha*).

Internetdan foydalanish huquqining tarkibiy qismlarini, ya’ni texnik va notexnik omillarni tahlil qilingan.

Texnik omillar o‘z ichiga quyidagilarni qamrab olishi asoslab berilgan:

- *foydalanuvchining Internetda ishlash imkonini beradigan vositalarga egalik qilish huquqi;*

- *foydalanuvchining qurilmasiga Internetda IP-manzil taqdim etish uchun texnik imkoniyatlarga ega bo‘lgan va foydalanuvchi qurilmasidan kelgan so‘rovlarga muvofiq axborotni qabul qilish hamda uzatishni amalga oshiruvchi provayder - aloqa operatori infratuzilmasidan foydalanish huquqi;*

- *global kompyuter tarmog‘ida manzil belgilash huquqi;*

- *axborotni qabul qilish va uzatishda noqonuniy cheklolarni bartaraf etishni talab qilish hamda cheklash faktlari va asoslari haqida xabardor bo‘lish huquqi;*

- *shaxsiy ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlashdan himoyalash huquqi;*

- *sifatli tarmoq ulanishiga ega bo‘lish huquqi.*

Internetdan foydalanishning texnik tarkibiy qismi ontologik jihatdan texnik bo‘lmagan omillar bilan uzviy bog‘liq. Texnik bo‘lmagan (notexnik) omil murakkab bo‘lib, o‘z ichiga quyidagilarni qamrab olishi asoslab berilgan: *subyektiv omil* va *obyektiv omil*.

*Subyektiv omil* tarmoq foydalanuvchisi bilan bog‘liq. Internetning muayyan shaxs hayotidagi o‘rni uning shaxsiy, aqliy, madaniy, iqtisodiy, jismoniy va boshqa imkoniyatlari hamda ehtiyojlari asosida belgilanadi. Foydalanuvchining texnik savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi. Afsuski, har kim ham axborot texnologiyalarini mustaqil o‘zlashtira olmaydi. Bu holat katta yoshli avlod vakillarida ko‘proq kuzatiladi. Subyektiv omil bilan bog‘liq turli masalalar “raqamli tengsizlik”ning murakkab muammosini (Internetdan foydalanishda teng imkoniyatlarning yo‘qligini) tashkil etadi. “Internetga ulangan bo‘lsa-da, tarmoqda

samarali ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va resurslarga ega bo'lmalik juda yomon. Undan ko'ra, Internetdan umuman foydalanmaslik kerak"<sup>9</sup>.

*Obyektiv omil* davlatning Internetdan foydalanish, Internetning potensial imkoniyatlari, ularni amalga oshirishni ta'minlash, shuningdek Internet orqali turli xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalar faoliyatiga nisbatan shakllanadigan siyosatidan iborat. Internetning transchegaraviy xususiyati mavjud. Biroq Internetning u yoki bu davlatda istiqomat qiluvchi insonlar hayotiga singib borish darajasi shu davlat hukumati tomonidan belgilanadi va bu masalada yagona o'rnatilgan amaliyot mavjud emas. Internetga ulanish infratuzilmasini rivojlantirishga sarmoya kirituvchi, shuningdek foydalanuvchilarni ushbu tarmoqdan foydalanishga undovchi xizmatlarni taklif etuvchi biznes ham shunga o'xshash ta'sir ko'rsatadi.

*Davlatning salbiy va ijobiy majburiyatlari* bilan namoyon bo'lgan obyektiv omilning quyidagi ko'rinishlarini keltirishimiz mumkin:

Salbiy majburiyatlar quyidagilardan iborat:

- *Internet axborot materiallariga (kontentiga) hududiy yurisdiksiya doirasidan tashqarida kirish imkoniyatini cheklamaslik va trafik uzatilishiga aralashmaslik;*

- *davlatning Internetni tartibga solish masalalarida o'ziga mutlaq vakolatlar yuklashdan o'zini tiyishi.*

Davlatning ijobiy majburiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

- *Internetda oflayn muhitdagi huquqlarning amal qilishini ta'minlash, ularni onlayn muhitda ham himoya qilish;*

- *qonun bilan himoyalangan qadriyatlarga nisbatan cheklovlarning haddan tashqari va nomutanosib bo'lishiga yo'l qo'yimaslik maqsadida Internetdan foydalanishni cheklash standartlarini ishlab chiqish;*

- *shaxsning axborot xavfsizligini ta'minlash va kiberjinoyatchilikdan himoya qilish masalasi.*

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Internetdan foydalanish huquqini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmi”** deb nomlangan bo'lib, Internetdan foydalanish huquqining alohida mustaqil huquq sifatida tan olinishi, Internetdan foydalanish huquqi bilan boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning o'zaro munosabati hamda Internet va Internetdan foydalanish huquqining huquqiy tartibga solishnishi tadqiq qilingan.

Dastlab Internetdan foydalanish huquqining alohida mustaqil huquq sifatida tan olinishi tahlil qilingan.

Internet tufayli konstitutsiyaviy huquqlar o'z tarkibida yangi huquqiy vakolatlarining paydo bo'lishi orqali mazmun-mohiyatini kengaytirmoqda. Ularni amalga oshirishning yangi usullari va kafolatlariga ega bo'lmoqda. Geosiyosiy keskinlik xavflari tobora ortib borayotgan sharoitda, inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini imkon qadar to'liq amalga oshirish va himoya qilishni ta'minlash uchun Internetdan foydalanish huquqini mustaqil kompleks huquq

---

<sup>9</sup>Иванов А.Ю. Контроль монополизации в условиях цифровой экономики: первая часть дискуссии о пятом антимонопольном пакете // Закон. 2018. № 2. // СПС «КонсультантПлюс».

sifatida yuridik jihatdan rasmiylashtirish zaruriyati vujudga kelayotganligi asoslantirilgan.

Subyektiv huquqning bunday institutsionallashuvi davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga hamda hozirgi sharoitda davlatning texnologik suverenitetini ta'minlash jarayonida inson huquqlarining kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan.

Xalqaro va milliy yurisdiksiyalar miqyosida Internetdan foydalanish huquqi inson huquqi sifatida umume'tirof etilgan huquq bo'lib shakllanmoqda. Bu huquq davlatlararo bitimlarda tan olinmoqda, shuningdek xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida ham e'tirof etilmoqda. Ushbu hujjatlar inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun Internetdan foydalanishning muhimligini ta'kidlaydi hamda davlatlarning har bir inson uchun Internetdan foydalanishni ta'minlash borasida majburiyatlarni o'z zimmasiga olishini takidlaydi.

Milliy yurisdiksiyalar darajasida ushbu huquq ba'zi mamlakatlar (Meksika, Nepal) konstitutsiyalarida to'g'ridan-to'g'ri mustahkamlanganini, boshqa mamlakatlarda (Fransiya, Kosta-Rika) oliy sud organlari tomonidan tan olinganini, shuningdek ayrim davlatlar (Gretsiya, Estoniya, Ispaniya, Misr, Ekvador, Portugaliya, Venesuela, Finlyandiya) o'z zimmalariga Internetdan foydalanish va undan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar olgani tahlil qilingan.

O'zbekiston huquqiy tizimiga Internetdan foydalanish huquqini shaxsning murakkab subyektiv huquqi sifatida kiritish zarurati, uning fundamental (konstitutsiyaviy) ahamiyati tufayli kelib chiqadi. Bu zarurat Internetning ijtimoiy ahamiyati oshganligi, qonunchilikda foydalanishni cheklash tizimi to'liq shakllanmaganligi va zararli ta'sir natijasida kompyuter tarmog'ining O'zbekiston segmenti faoliyati buzilishi xavfi bilan bog'liq. Bu huquqni kiritish Internetning jamiyat hayotidagi o'rnini tan olish va inson manfaatlarini himoya qilish uchun muhimligi tavsiflangan.

Xalqaro miqyosda va turli davlatlarning me'yoriy tartibga solish tajribasi va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish natijalarini inobatga olgan holda, Internetdan foydalanish huquqini yuridik jihatdan tan olishning mumkin bo'lgan quyidagi usullari tahlil qilingan:

- *Konstitutsiyasida bevosita mustahkamlash;*
- *Internetdan foydalanishning qo'shimcha kafolatlarini joriy etadigan va uni har tomonlama tartibga soladigan, raqamli tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan, shuningdek ijtimoiy ahamiyatga ega axborot resurslariga kirishni ta'minlash yondashuvini rivojlantiradigan tegishli qonunni qabul qilish.*

Konstitutsiyaviy sudlar tomonidan quyidagicha huquqiy pozitsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

- *Internetdan foydalanishni inson huquqlarining umume'tirof etilgan qismi sifatida tan olish;*
- *konstitutsiyaviy huquqni talqin qilish orqali Internetdan foydalanish uchun alohida huquqni belgilash, ya'ni axborotni har qanday qonuniy usul bilan erkin izlash, olish, yaratish va tarqatish huquqi;*

– *inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishda tenglik prezumpsiyasi (bu tenglik real dunyoda ham, Internetda ham) haqidagi xulosani shakllantirish; ushbu xulosa inson huquq va erkinliklarining ustunligi, ularning bevosita amal qilishi kabi konstitutsiyaviy tamoyillardan kelib chiqadi, agar huquqning mohiyati va uni amalga oshirish xususiyatlari boshqacha holatni taqozo etmasa.*

O‘zbekiston tajribasiga ham to‘xtalib o‘tilgan. 2023-yil 30-apreldagi referendum asosida O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida” (2023-yil 1-maydagi O‘RQ–837-son) Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda e‘lon qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 33-moddasiga asosan davlat Internetdan foydalanishni axborotni izlash, olish va tarqatish huquqining kafolatlaridan biri sifatida Konstitutsiyasi darajasida tan oldi. Ya‘ni Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash bilan bog‘liq majburiyatlarni (texnik va notexnik omillar) o‘z zimmasiga oldi.

Biroq Konstitutsiyasining 33-moddasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Internetdan foydalanish huquqini alohida mustaqil huquq sifatida tan olmagan. Faqatgina axborotni izlash, olish va tarqatish huquqining kafolati sifatida Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash majburiyatini olgan.

Shuningdek, Internetdan foydalanishning texnik va texnik bo‘lmagan omillari bilan bog‘liq davlatning ijobiy majburiyatlari ham qonunchiligimizda mavjud emasligi asoslab berilgan.

Bobning keyingi qismida Internetdan foydalanish huquqi bilan boshqa konstitutsiyaviy huquqlarning o‘zaro munosabati tahlil qilingan. Bunda, asosan, quyidagi konstitutsiyaviy huquqlar misolida ko‘rib chiqilgan:

- *fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi (33-moddaning 1-qismi); axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi (33-moddaning 2-qismlari);*
- *huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi 2-qismi);*
- *malakali yuridik yordam olish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasi 1-qismi);*
- *saylash va saylanish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36 va 128-moddasi);*
- *murojaat qilish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasi);*
- *mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasi);*
- *sog‘liqni saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasi);*
- *ta‘lim olish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi);*
- *madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi);*
- *shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi. (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi).*

Shundan so‘ng, Internet va Internetdan foydalanish huquqining huquqiy tartibga solishnishi tadqiq qilingan.

Tarmoq munosabatlarini me‘yoriy tartibga solish milliy va jahon tajribasida ishlab chiqilgan yondashuvlarga asoslanishi lozim. Bu yondashuvlar inson asosiy huquqlarining mazmuni, ularni amalga oshirish doirasi, cheklash asoslari va himoya shakllari kabi masalalarni qamrab oladi. Bunda axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarining ishlash jarayonidagi texnik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi asoslantirilgan.

O‘zbekistonda Internetni huquqiy tartibga solish masalasi birorta qonun hujjatlari bilan aniq belgilab berilmagan. Internet bilan bog‘liq qonunchiligimizdagi mavjud normalar Internet bilan bog‘liq munosabatlarni ayrim jihatlarini tartibga soladi xolos. Mazkur munosabatlarni tartibga solishda ayni bir qonun normasiga emas, balki bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Internet sohasiga oid qonun hujjatlari tizimlashtirishi davlat oldidagi eng asosiy vazifalardan biriga aylanib ulgurdi. Har bir mamlakat Internet sohasiga oid qonun hujjatlarini qabul qilish jarayonida jahon hamjamiyati tomonidan umume‘tirof etilgan quyida hujjatlarda aks etgan prinsiplardan imkon qadar keng foydalanishlari lozim:

- *Global axborot jamiyati Okinava xartiyasi, G-8 sammiti (2000);*
- *Axborot jamiyatini rivojlantirish masalalari bo‘yicha oliy darajadagi umumjahon uchrashuvi prinsiplarining Jeneva Deklaratsiyasi (2003);*
- *Axborot jamiyatini rivojlantirish masalalari bo‘yicha oliy darajadagi umumjahon uchrashuvining Jeneva harakatlar rejasi (2003);*
- *Axborot jamiyati masalalari bo‘yicha oliy darajadagi umumjahon uchrashuvining Tunis majburiyati (2005);*
- *Axborot jamiyati masalalari bo‘yicha oliy darajadagi umumjahon uchrashuvining axborot jamiyati uchun Tunis dasturi (2005);*
- *AQSh, Yevropa ittifoqiga a‘zo davlatlar va boshqa 32 mamlakatlar tomonidan qabul qilingan “Internet kelajagi Deklaratsiyasi” (2022);*
- *Internetni boshqarish bo‘yicha Global forum qarorlari va tavsiyalari.*

Yuqorida keltirilgan barcha yondashuvlarni inobatga olgan holda, Internetdan foydalanish huquqini qonun darajasida huquqiy tartibga solish eng maqbul yechimligi asoslab berilgan.

Internetni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining yo‘qligi quyidagi oqibatlariga olib kelishini tushuntirilgan:

*Birinchidan*, ayrim mamlakatlarda bunday qonun hujjatlarining yo‘qligi Internet hokimiyat organlari aralashuvisiz rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi;

*Ikkinchidan*, ba‘zi mamlakatlarda Internetni tartibga soladigan qonun hujjatlarining yo‘qligi hokimiyat organlari harakatlari uchun erkinlik beradi, ya‘ni nimani ruxsat etish va nimani taqiqlashni amaldorlar o‘zboshimchalik bilan hal qiladilar;

*Uchinchidan*, ayrim mamlakatlarda Internet hukumat tomonidan me‘yordan ortiq tartibga solinadi. Internet sohasida qonun hujjatlarini yanada uyg‘unlashtirishning maqsadi mazkur cheklashlarni olib tashlashdir. “Tartibga soluvchi” qonun ayrim mamlakatlarga Internetdan foydalanish sohasida yuzaga

keluvchi huquqiy munosabatlarni tartibga solish imkonini beradi;

*To'rtinchidan*, Internetni rivojlantirishning eng ta'sirchan vositasi uning o'zini o'zi tartibga solishidir. Tarmoqda munosabatlarni tartibga solishning mazkur usuli Internet hamjamiyatning barcha a'zolarini qanoatlantiradigan qoidalarni belgilash va davlat aralashuvini oqilona darajada cheklash imkonini beradi<sup>10</sup>.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Internetdan foydalanish huquqini ta'minlanishining takomillashtirish istiqbollari**" deb nomlanib, ushbu bobda Internetdan foydalanish huquqining cheklanishi hamda Internetdan foydalanish huquqini ta'minlash bilan bog'liq muammolar va Internetdan foydalanish huquqini ta'minlashni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan.

Bir insonning huquq va erkinligi boshqa insonning huquq va erkinligi, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini boshlanadigan joyda tugaydi.

Davlatning Internet orqali insonlar huquq va erkinliklarini amalga oshirishga aralashuvining chegaralari va cheklovlarini aniqlash dolzarb muammo hisoblanadi. Internetning ta'siri tobora ortib borayotganini inobatga olib, "davlat hokimiyati chegaralari shunday belgilanishi kerakki, bunda davlat nafaqat insonning huquq va erkinliklariga daxl qilishdan tiyilishi, balki jamiyatni samarali boshqarish orqali bu huquq va erkinliklarni amalga oshirish uchun sharoit yaratishi ham lozim"<sup>11</sup>. Qonunchilikda Internetdan foydalanish imkoniyatiga aralashish chegaralari bo'yicha maxsus ko'rsatmalar belgilanmagan. Agar Internetdan foydalanish huquqi yangi kompleks huquq sifatida rasmiylashtirilsa, aynan "inson huquqi sifatida tan olinishi" bunday chegara vazifasini o'tashi mumkinligi asoslab berilgan. Chunki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasi 3-qismiga asosan, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishga davlat aralashuvining o'ziga xos xususiyatlarini va chegaralarini belgilaydigan universal konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizm mavjud. Ya'ni insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi 4-qismiga asosan, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi.

Jamiyat manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida huquqlarni cheklash imkoniyati har doim xavf tug'diradi. Bu xavf qo'riqlanadigan jamoat manfaatiga nomutanosib cheklov choralari qo'llashga

---

<sup>10</sup>Рустамбеков И. Интернет тармоғида фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиш муаммолари. Монография. Тошкент - 2017 // Электрон манба: [https://drive.google.com/file/d/1Jji62MkgxygkDsYE36Rx4ITHFk\\_yEjUD/view](https://drive.google.com/file/d/1Jji62MkgxygkDsYE36Rx4ITHFk_yEjUD/view)

<sup>11</sup>Троицкая А.А. Пределы публичной власти: конституционно-правовое осмысление // Вестник Московского университета. Серия 11. Право. 2009. №5. С.47

olib kelishi mumkin. Hatto bunday cheklovlarni belgilashda suiiste'mollik bo'lmasa ham.

Hozirgi kunda inson huquqlarini cheklash chegaralari masalasi juda dolzarb bo'lib turibdi. Shuning uchun ham, Konstitutsiyaviy huquqlarning cheklanishi zaruriyligi va bunday cheklovlar konstitutsiyaviy maqsadlarga mutanosib bo'lishi lozimligi asoslab berilgan.

Cheklov bilan bog'liq norma rasmiy jihatdan aniq belgilangan, to'g'ri, ravshan va tushunarli bo'lishi, o'rnatilgan cheklovlarni kengaytirib talqin qilishga yo'l qo'ymasligi va ularni o'zboshimchalik bilan qo'llashga imkon bermasligi kerakligi asoslab tushuntirilgan.

Internetdan foydalanish huquqi mutlaq emas, balki nisbiydir. Internet taqdim etadigan imkoniyatlarning xilma-xilligi tufayli har bir holat uchun munosib cheklovni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Internetdan foydalanish huquqi haddan ziyod cheklanmasligi, ayni paytda cheklovlar ma'lum maqsadga erishish imkonini berishi lozim. Suiiste'molliklarning oldini olish maqsadida cheklov mezonlari ishlab chiqilishi lozim. Mazkur mezonlar Internetdan foydalanish huquqining qo'shimcha kafolati vazifasini o'taydi.

Cheklovlar *individual-muayyan* va *umumiy* xususiyatga ega bo'lishi mumkinligi tahlil qilingan.

Individual xususiyatga ega cheklovlar Internet foydalanuvchisining huquqiy maqomi va uning o'zgarishi sababli yuzaga keladi hamda quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

- *umuman Internetdan foydalanishni cheklashda;*
- *Internet yordamida amalga oshiriladigan ma'lum bir faoliyatni cheklashda.*

Internetni tartibga solish darajasiga ko'ra uch xil model ko'rib chiqildi: *liberal*, *avtoritar* va *avtoritar-totalitar*. Liberal model Internetdagi siyosiy mazmundagi ma'lumotlar ustidan amalda nazorat yo'qligini nazarda tutadi. Avtoritar model Internetning faqat siyosiy qismini nazorat qilishni ko'zda tutadi, xususan, ma'lum tanqidiy materiallar mavjud siyosiy tizimga putur yetkazishi mumkin bo'lgan hollarda. Avtoritar-totalitar model esa, mamlakat rahbariyatining Internetdan foydalanishni butunlay taqiqlash va o'zining milliy tarmog'ini yaratishga bo'lgan intilishlarini aks ettiradi.

Internetdan foydalanish huquqi boshqa huquqlarni amalga oshirish vositasi bo'lganligi uchun ham insonning raqamli aksi mavjud bo'lgan huquqi (Internetdagi) cheklanishi natijasida Internetdan foydalanish huquqi cheklanadi yoki aksincha.

Milliy (davlat) darajasida va xalqaro miqyosda Internet orqali insonlar huquq va erkinliklarini amalga oshirishga aralashuvining chegaralari va cheklovlari hamda cheklovlarning mutanosibligi bilan bog'liq vaziyatlar tahlil qilindi. Internetdan foydalanish huquqini cheklash bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar o'rganib chiqildi.

Internetdan foydalanish huquqini Internetdan ayro tasavvur qila olmaymiz. Internet bilan bog'liq barcha muammolar Internetdan foydalanish huquqini ta'minlash bilan bog'liq muammolar bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda Internet nafaqat alohida "tarmog'" balki "huquqiy maydon" ham sanaladi. Shuning

uchun Internet tarmog‘i va Internet huquqiy maydonini talil qilish asosida Internetdan foydalanish huquqini ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar va Internetdan foydalanish huquqini ta‘minlashni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qilindi.

Internet tarmog‘idagi asosiy muammolar o‘rganildi. Har bir muammo alohida tahlil qilib oqibatlari tushuntirildi.

Quyidagilar Internet tarmog‘idagi asosiy muammolar hisoblanadi:

- *virtual shaxs: ijtimoiy hodisa va huquqdagi aks etishi;*
- *foydalanuvchilarni aniqlash (identifikatsiyalash);*
- *yurisdiksiyani aniqlash;*
- *Internetda huquqbuzarliklar turlari va ko‘lamining ortib borishi;*
- *axborot vositachilarining javobgarligi;*
- *avtomatlashtirilgan harakatlar.*

Internetdan foydalanish huquqining ta‘minlanishini takomillashtirish davlatlar tomonidan texnik va texnik bo‘lmagan omillarni ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlar bilan bog‘liqligi o‘rganildi.

Davlatlar tomonidan Internetdan foydalanishning texnik va texnik bo‘lmagan omillarini ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlarga oid qoidalarni ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, avval, xalqaro shartnomalar va xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida (Internetdan foydalanish) texnik omilning o‘rni, keyin esa xalqaro shartnomalar va xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida (Internetdan foydalanish) notexnik omilning o‘rni tahlil qilindi.

Har qanday Internetdan foydalanish huquqini mustaqil huquq sifatida tan olgan davlat Internetdan foydalanish huquqini o‘z yurisdiksiyasi doirasida ta‘minlashi shart. Davlatlar uchun Internetdan foydalanish huquqini ta‘minlash boshqa konstitutsiyaviy huquqlarni ta‘minlashga nisbatan og‘irroq kechadi. Chunki Internetdan foydalanish huquqining mazmuni juda keng.

Davlatlar uchun Internetdan foydalanish huquqini texnologik tomondan ta‘minlash bilan bog‘liq majburiyatlar quyidagilardan iborat:

- *Internet taqdim etadigan texnologik imkoniyatlardan to‘siqsiz foydalanish;*
- *Internetdan foydalanish uchun dasturiy ta‘minot va texnik qurilmalarni tanlash hamda ulardan foydalanish erkinligi;*
- *“tarmoq betarafligi” tamoyillariga rioya qilish;*
- *trafikni kamsitish yoki xizmatlar sifatini pasaytirishni taqiqlash;*
- *qonuniy kontent, ilovalar va xizmatlarni qabul qilish yoki jo‘natishga bo‘lgan cheklovlarni taqiqlash;*
